

## YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIMA AYOLLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA’NAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH

**Irodaxon Nurmatova Akramjonova**

Farg‘ona Davlat Universiteti

Tarix fakulteti Sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi

**Xasanova Dilobarxon Abdumannob qizi**

Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda xotin-qizlarga davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohatlar, jamiyatda ayollar o‘rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilayotgan imkoniyatlar, yurtimizda gender tengligi tushunchasi qay darajadali haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ayol, gender, xalqjamiyat, talabchanlik, birdamlik, qonun, Oliy Majlis Senati, ijtimoiy faoliyat, olim ayollar, ijtimoiy-iqtisodiy.

Darhaqiqat ayol – kim bu??? Ba‘zan ojiza, ba‘zan himoyachi. Ba‘zan yig‘loqi, ba‘zan shunchalar baquvvatki, sabri oldida tog‘lar ham boshini egadi... O‘zi mehr bulog‘i bo‘lsa ham mehrga tashna... Vaqti kelsa boladek erkatoy... Vaqtida pahlavondek kuchli... Ba‘zan o‘ta jahldor ba‘zida ba‘zida esa halimdek muloyim... U necha yoshda bo‘lmasin... Qanchalik kuchli bo‘lmasin u baribir qalban mehrga muhtoj. Kichkina qizaloqdir... San unga shunday mehr berginki, toki u bu dunyoda boshqa hech kimdan mehr izlamasin... Ana o‘shanda vafosiz go‘zallar ham... Buzilgan oilalar ham Tirik yetim bolalar ham bo‘lmaydi. Xususan, ayol haqida gap boshlar ekanmiz, uning mo‘jizakorligi. ajoyib xilqat ekanligi haqida anglab yetamiz. Hozirgi kumda jamiyatimizda oqila, olim ayollarga ko‘rsatilayotgan imkoniyat va harakatlarga diqqat

qilsak, Bilamizki, o‘zbek xalqi mehmondo‘st, xalqparvar, millatsevar yurt deb aytgan bo‘lsam adashmagan bo‘laman. O‘zbekistonda ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan davlat ravnaqiga katta hissa qo‘shib kelayotgan olim ayollarni har tamonlama qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzurida tashkil etilayotgan nodavlat va notijorat tashkilot. Olima ayollar jamiyati va uning hududiy bo‘linmalari Oila va xotin qizlar davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. O‘zbekiston ixtirochi ayollar markazi nodavlat va notijorat tashkilotining takliflari asosida tashkil etilmoqda. Ayol, shiddatli zamonda aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash biz uchun eng dolzarb vazifa bo‘lin kelinmoqda. Olima ayollar erkin huquqqa ega ekanligi, ta‘lim va bilimlar berishligi, oila va jamiyatda ayol va erkaklarning teng huquqli ekanliklari qonunchiligimizda ko‘rsatib o‘tilgan. Bularning barchasi ayol, ona muqaddasligining, ularga e‘tibor qaratish, jamiyatga e‘tibor qaratish ekanining amaldagi isbotidir. Bu tamoyil “Olima ayollar”ning asosiy mezonini bo‘lib qoladi.

Ayol, ona barcha so‘zlar zamirida mislsiz, siz-u biz anglab yetolmas mazmun borki, bu haqida qancha fikr-u mulohaza yuritsak bazribir oz. Ayol barcha qiyinchiliklarni yengadi. Ha, bu hayot haqiqati. Bu haqiqatni hech kim rad etolmaydi. Ayolning oiladagi o‘rni haqida qancha gapirsak shuncha oz deb o‘ylayman. Oila bir kema bo‘lsa uni boshqaruvchisi ayol hisoblanadi. Odamzot ongli hayot boshlagandan bugun ayollarga kuchli ixlos qo‘yib, uni sevib, ardoqlab keladi. Xozirgi ayollarimiz intiluvchan, talabchan va ishbilarmonlardir ularni ha bir sohada uchratishimiz mumkin. Prezidentimiz ularga keng yo‘llar ochib bermoqda ilgari ayollarimiz faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lganlar uyda o‘tirib farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan uyda erkak ustunlik qilgan faqat ular ishlashgan hozir esa ayniqsa qishloq ayollarini fermerlik qilishayotganini ko‘rib albatta diling yayraydi, qishloq ayollarini faqat uy-ro‘zg‘or ishlari band bo‘lib qolmasdan ular ham jamiyatimizga salmog‘li hissa qo‘shyapdilar shu bilan birga albatta uy ishlariga ham ulgurishyapti. Jamiyatimizdagi gender tenglik tushunchasiga e‘tibor qaratar ekanmiz, gender tenglik o‘zi asli nima?

Degan savolga javob berib o‘tsak. Gender tenglik-ayollar va erkaklar teng sharoitlar yaratilsa, teng munosabatga kirishilsa vat eng imkoniyatlarga ega bo‘lganda gender tengligiga erishiladi. Bu ayollar va erkaklarga o‘z qobiliyatini ko‘rsatish, inson huquqlari va uning qadrini qiymatini to‘liq namoyon chiqarish imkonini beradi. O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yhatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatidagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Mamlakatlar Tashkilotining jamg‘arma tashkilotiga ko‘ra, 100000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentyabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekiston Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzilla Norboyeva O‘zbekiston Respublikasi Gender Tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi. Gender tenglik deganda islom dinida ko‘pchilik ayol va erkaklar kishining huquq jihatdan teng bo‘lishini tushunadi. Buni holis yoritadigan bo‘lsak, Alloh taolo erkakni ham, ayolni ham o‘zi yaratgan va odam bolalari sifatida ularni mukarram aylagan. Har bir shaxsning huquqlariga qarab burchlari yoki aksincha, burchlariga qarab huquqlari bo‘ladi. Biz bilamizki, ayolga va erkakka shar‘an bir xil imkoniyat berilmagan. Shuning uchun huquqlari orasida ham biroz farq bo‘ladi. Agar ikkalasi bir xil vazifa yuklanadigan bo‘lsa, ularni ikki jinnga ajratishdan ma‘no qolmaydi. Islom dini paydo bo‘lishidan oldin ayollarga zulm qilish, ularni odam o‘rnida ko‘rmaslik, ularni meros qilib kimgadur berib yuborish, turmush qurishdancheqlash va moliyaviy huquqlaridan mahrum qilish kabi holatlar bor edi. Islom dini kelganidan keyin ayolga insoniylik, olima ayollarimiz hozir tuli xil ilmiy ishlar, kitoblar muallifi, o‘qituvchilar, shifokor ayollarimiz hozir kinimizga yaraydi. Erkak o‘z ishini qilishi lozim, ayol o‘z ishini agar teng huquqlilik oldinga surilaversa, chetdan dushmanlar kirib kelgan payt ayollar ham erkaklar qatori qo‘liga

qurol olib maydonga chiqishlarini talab etiladi. Bu narsalarni biz chuqur anglashimiz, hamda Alloh taolo joriy qilib qo‘ygan ahkomlarfa aralashmasligimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Malika Qodirxonova O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi nutqidan.
2. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi’ rasmiy veb-sayti
3. Bahodir Xidirova “Ijtimoi hayot” Toshkent-2010
4. Oliy Majlis Senati raisi Tanzilla Norboyevaning ‘Tadbirkor ayol’ nomli tadbir nutqidan